



Some considerations on the formation of agricultural policy of the Russian Empire in Turkistan

Umidjon USAROV¹

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

ARTICLE INFO

Article history:

Received February 2024
Received in revised form
15 February 2024
Accepted 15 March 2024
Available online
25 April 2024

Keywords:

Central Asia,
Europe,
Russia,
empire,
Turkistan,
industry,
cotton,
textiles,
market,
raw materials,
manufacture,
trade.

ABSTRACT

This article, based on sources and literature from various periods, analyzes the formation of the agricultural policy of the Russian Empire in the Turkestan region, aimed at strengthening political and economic prestige in the international arena by the middle of the 19th century. Policies based on the principles of colonialism are examined through the prism of their influence on the subordination of agriculture to the interests of the empire, which was achieved due to various military expeditions and observations.

2181-1415/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss2-pp157-162>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Rossiya imperiyasining Turkiston o'lkasida agrar siyosatining shakllanishiga doir ba'zi mulohazalar

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

O'rta Osiyo,
Yevropa,
Rossiya,
imperiya,
Turkiston,
sanoat,
paxta,
to'qimachilik,
bozor,
xomashyo,
manufaktura,
savdo.

Ushbu maqolada XIX asr o'rtalariga kelib, Rossiya imperiyasi o'zining xalqaro maydonda siyosiy va iqtisodiy obro'sini saqlab qolish maqsadida Turkiston o'lkasida mustamlakachilikka asoslangan agrar siyosatining shakllanishi davr manbalari va turli davrdagi adabiyotlar hamda ilmiy tadqiqot ishlari orqali ochib berilgan. Shunigdek, maqolada imperiya hukumatining o'lkadan ko'zlangan strategik maqsadlari yo'lida turli harbiy ekspeditsiya va kuzatishlar natijasida qishloq xo'jaligini o'z manfaati yo'lida bo'ysundirish uchun olib borgan siyosati tahlilga tortilgan.

¹ Associate Professor, PhD, Department of History, National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Некоторые взгляды на формирование аграрной политики Российской империи в Туркестане

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

Средняя Азия,
Европа,
Россия,
империя,
Туркестан,
промышленность,
хлопок,
текстиль,
рынок,
сырье,
производство,
торговля.

В данной статье на основе источников и литературы различных периодов анализируется формирование аграрной политики Российской империи в Туркестанском крае, направленной на укрепление политического и экономического престижа на международной арене к середине XIX века. Политика, основанная на принципах колониализма, рассматривается через призму её влияния на подчинение сельского хозяйства интересам империи, что было достигнуто в результате различных военных экспедиций и наблюдений.

KIRISH

XIX asrning o'rtalaridan boshlab Yevropa mamlakatlarida kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanishi Rossiya imperiyasi kabi harbiy idora usuliga asoslangan davlatlarga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi. Bu davrga kelib, Rossiya imperiyasida siyosiy-iqtisodiy vaziyat o'zgarib, rus burjuaziyasi Yevropadagi rivojlangan kapitalistik mamlakatlarning fan-texnika va sanoat ishlab chiqarishi sohasida erishgan yutuqlarini o'z zavod-fabrikalarida qo'llashga kirishdi. Natijada zavod-fabrikalar soni ko'payib, transport aloqalari yaxshilandi, urbanizatsiya jarayoni kuchayib, shaharlar kengaya boshladi. Biroq Angliya, Germaniya, Fransiya kabi davlatlarda birgina temir yo'llarning mavjudligi, bu davlatlarning sanoati rivojlanishiga, tashqi bozorga chiqishiga juda katta qulayliklar bergan vaqtda Rossiya imperiyasi iqtisodiyoti rivojlanish jihatdan ancha orqada edi [4. – C. 300]. Bu ayniqsa, Rossiyaning Qrim urushidagi mag'lubiyatidan so'ng yaqqol sezila boshladi. Aynan shundan keyin imperiyada islohotlar o'tkazish zarurligi, bu borada rivojlangan davlatlarning tajribasini o'rganish kabi masalalar davlat ahamiyatidagi muammoga aylandi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Rossiya imperiyasining Turkiston o'lkadagi yer-suv munosabatlariga oid siyosatining shakllanishiga doir bir qator davr mualliflari, jumladan, rus harbiy zobiti, general-leytenant M.A. Terentev (1875) asari, imperiya senati a'zosi, graf K.K. Palen (1911) taftish komissiyasi ma'lumotlari va imperiya ma'murlaridan davlat mulklari va ziroatchilik vaziri A.V. Kirivoshein (1912) hisobotlari hamda turli davrlarda N.A. Xalfin (1960), A.P. Shipov (1958), Y.V. Balakin, A.I. Petrov, Y.A. Sorokin (1999), A.P. Derevyanko, N.A. Shabelnikova (2001), H. Ziyoyev (2006), N.U. Musayev (2008), N. Jo'rayev, H. Sodiqov (2011), M.S. Hamidova (2013), B.A. Alimdjanov (2016), U.A. Usarov (2021) kabi mualliflarning asarlari va tadqiqot ishlarida imperiya hukumatining o'lkadan ko'zlangan agrar siyosatining mohiyati va shakllanishiga oid turli jarayonlar ochib berilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishi qiyosiy-statistik va mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, tarixiylik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan bo'lib, unda XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Rossiya imperiyasi mustamlakachi hukumatining Turkiston o'lkasidan ko'zlangan yer-suv siyosatining shakllanishi va strategik maqsadlarini ochib beruvchi manbalar hamda tadqiqot ishlari ilmiy tahlilga tortilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Rossiya imperiyasi hududida XVIII asr oxirlariga kelib 1200 ta manufaktura mavjud bo'lib, ular asosan rivojlangan metallurgiya va endigina rivojlanib kelayotgan yengil sanoat sohalari hisobiga to'g'ri kelgan. Xususan, 1760-yillarda imperiya hududida 231 ta korxona bo'lgan bo'lsa, asr oxiriga borib, bunday korxonalar soni 1082 taga yetadi [8, – C. 412]. Sanoatni jadal sur'atlar bilan rivojlanishi oqibatida Rossiya imperiyasi hududida 1800-yilga kelib, 100 dan ortiq ip-gazlama korxonalari qurildi. 1804-yilda esa bunday fabrikalar soni 199 taga yetgan bo'lsa, 1830-yilda 538 tani tashkil etgan. Biroq ularning ko'pchiligi Rossiya imperiyasi hududiga daromad qilish uchun kelgan Angliya, Germaniya, Shvetsiya, Fransiya kabi Yevropa davlatlarning tadbirkorlariga tegishli korxonalar bo'lib, ular qatorida “E. Gubbard i Ko”, “L. Knop”, “Vogau i Ko”, “Br. Nobel”, “Vaxter i Ko”, “Y.P. Gujon”, “K.O. Jiro Sinovya”, “K.G. Shpan” va boshqalar bor edi [14, – 11 b.].

Ayni paytda Rossiya imperiyasi hukumati tomonidan Yevropaga sanoat sohasidagi turli zamonaviy tajribalarni o'rganish maqsadida bir qator mutaxassislar yuborilgan. Bu harakatlardan asosiy ko'zlangan maqsad imperiya sanoat va ishlab chiqarish sohasini o'z davridagi sanoati rivojlangan davlatlar darajasiga yetib olish bo'lgan. Imperiya hukumati bu boradagi siyosati imperatorning ishonchli vakili N.X. Reyternning 1857-yilda Parijdan podsho Nikolay II nomiga yo'llagan maktubida yaqqol o'z aksini topdi. Jumladan, maktubda “bizning moliyaviy ahvolimizga hukumat katta e'tibor bermog'i lozim. Hozir biz burilish davrida turibmiz, barcha masala hukumat taraqqiyotining qanday yo'lni tanlab olishiga bog'liqdir. Agar ahvol shu holatda qolaversa, eski yo'ldan yangi yo'lga yetib olish qiyin bo'ladi” deb yozadi. Shuningdek, N.X. Reytern buning uchun yangi daromad yo'llarini izlash, xarajatlarni kamaytirish yo'lini tavsiya qildi va o'z fikrini maktubda quyidagilar bilan izohlaydi: “buning uchun soliq olishning eski usullarini ko'rib chiqish va yangi yo'llarini topish zarur. Moliyaviy ahvolni yaxshilash uchun ichki zayomlar va kredit biletleri chiqarmoq kerak” [16, – C. 60-61].

Ta'kidlaganimizdek, bu davrda Rossiya imperiyasi hukumati yangi taraqqiyot yo'liga kirishi uchun katta islohotlarni amalga oshirishi zarur edi. Bu vaqtda Rossiya imperiyasidagi rus dehqonlarini pomeschchik (yirik yer egalari va boylar)larga butunlay bog'lab qo'ygan krepostnoylik (yirik yer egalari yoki boylar (pomeschchiklar)ning o'ziga qarashli dehqonlarga, ularning mehnati va mol-mulkiga cheksiz egalik qilishiga asoslangan tuzum) [12] tuzumi dehqonlarning noroziliklarini kuchaytirib yuborgan vaqtda imperiya hududida kapitalistik ishlab chiqarishning nisbatan tez rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatuvchi, dehqonlar qaramligini bekor qiluvchi islohotlar, ya'ni “krepostnoylik huquqi” bekor qilindi va bu esa ozodlikka erishgan ko'plab dehqonlarning zavod-fabrikalariga ishga joylashishiga imkon berdi.

Afsuski, XIX asr o'rtalarida sifat jihatdan ancha orqada bo'lgan Rossiya sanoat mahsulotlari Yevropa bozorlaridagi raqobatga bardosh bera olmadi. Yevropa tajribasini o'rgangan rus iqtisodchilari rivojlangan davlatlar qatoriga kirish uchun raqobatsiz yangi bozorlar, endi rivojlanib kelayotgan Rossiya to'qimachilik sanoati uchun arzon xomashyo lozimligini angladi. Ayni paytda Liverpul (Buyuk Britaniya) paxta yarmarkasidan va O'rta Osiyo bozorlaridan tuyalarda olib kelingan ozgina paxta imperiya to'qimachilik sanoati ehtiyojlarini qondira olmas edi. Bu haqda imperiya harbiysi M.A. Terentyev shunday degan edi: “Bizning to'qimachilik sanoatimiz mahsuloti agar ayrim mahsulotlarni hisobga olmaganda Yevropa bozorlarida xaridor topa olmaydi” – deb ta'kidlagan [11, – C. 32].

Chindan ham qo'shni bo'lgan Turkiya, Eron, Afg'oniston, Xitoy kabi davlatlarda ham an'anaviy to'qimachilik sanoati rivojlangan bo'lib, rus mahsulotlari bu yerlarda o'z xaridorini topa olmas edi. Rossiya to'qimachilik sanoatining eng yirik vakillaridan biri A. Shipov ham to'qimachilik sanoatining ahamiyatini o'rganib, o'z fikrini quyidagicha ta'kidlaydi: "Sanoatning bironta ham sohasi o'zining foydaliligi, ishchi kuchini samarali band qilishi jihatidan to'qimachilik sanoatiga bas kela olmaydi" [18, – C. 49-50].

Rossiya imperiyasining Qrim urushidagi mag'lubiyatidan so'ng Bolqon mamlakatlariga bo'lgan qiziqishdan voz kechdi. Endilikda rivojlanib kelayotgan to'qimachilik sanoatini xomashyo bilan ta'minlash, ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotish uchun ichki bozorlar kerak edi. Shu bilan birga, bu davrdagi Rossiya imperiyasi qo'l ostiga olgan yerlarda esa paxta xomashyosini yetishtirishning imkoni yo'q bo'lib, bu mamlakatlar allaqachon raqobatsiz savdo bozoriga aylanib bo'lgan edi. Shu sababli imperiya hukumati asosiy e'tiborini O'rta Osiyo xonliklari hududlariga qaratdi.

XIX asrning o'rtalarida Rossiya imperiyasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri O'rta Osiyoni xomashyo bazasiga aylantirish, moliyaviy masalalarni hal qilishdan iborat edi. Rus iqtisodchilari to'plagan ma'lumotlarga ko'ra, Buxoro, Xiva, Qo'qon davlatlari hududida 10 million (mazkur ma'lumot bo'rttirib ko'rsatilgan. – U.U.) atrofida aholi yashagan. Ularning ip-gazlamalarga bo'lgan ehtiyoji taxminan 1 million 750 ming pudni tashkil etgan. 1856–1864-yillarda Rossiyaning O'rta Osiyoga qilgan eksportida ip-gazlama umumiy mahsuloti 40 foizga teng bo'lgan. 1867-yilda bu yerga yuborilgan ip-gazlamalarning umumiy miqdori 11 million 647 ming 505 rublni tashkil etgan [11, – C. 36].

Bu davrda O'rta Osiyodan Rossiya imperiyasi bozorlariga uchta aloqa yo'li orqali to'qimachilik, xomashyo mahsulotlari, xususan, paxta, ipak, ulardan yigirilgan kalava iplar, tayyor matolar (olacha, bo'z, doka, zandanachi, baxmal, kimxob, parcha), turli-tuman gilamlar, rus amaldorlari uchun sovg'a-salom sifatida zardo'zlik buyumlari chiqarilgan [17, – 179 b.]. Rossiya imperiyasi uchun bu qulay vaziyatni hisobga olgan rus harbiy zobiti, general-leytenant M.A. Terentyev, "Savdo ishlaridagi millionlab olinayotgan daromadlar istilo qilingan mamlakatlardagi bozorlar biz uchun qanchalik katta ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatmoqda. Hech shubha yo'qki, ana shunday bozorlarga ega bo'lishimiz to'qimachilik sanoati uchun yana millionlab daromadlar keltiruvchi yangi manbalar yaratilishiga olib keladi" [11, – C. 36] – deb alohida ta'kidlaydi.

Rossiya imperiyasi O'rta Osiyo xonliklari hududlarini bosib olmasdan avval imperiya hududida 600 ta to'qimachilik fabrikasi bo'lib, ularda 1 million 800 ming to'qimachilik dastgohlari bo'lgan, ular ishlab chiqargan mahsulotning umumiy miqdori 120 million rublni tashkil etgan" [11, – C. 34]. O'rta Osiyo xonliklari Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingandan so'ng, bu yerlardan keltirilgan arzon homashyo hisobiga bunday sanoat korxonalari soni ortib, Rossiya imperiyasi fabrikalar soni bo'yicha dunyoda birinchi o'ringa chiqdi [3, – C. 176].

XIX ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasi hukumati Turkistonda iqtisodiy munosabatlarida mustamlakachilik siyosatini izchillik bilan amalga oshirdi. U mintaqadagi yer-suv va tabiiy boyliklarning egasi sifatida ish yuritib, ko'pdan-ko'p mablag'lar hukumat xazinasiga va kapitalistlarning cho'ntaklariga daryo suvi kabi oqib boraverdi. Ayniqsa, paxta ularga katta daromad keltirdi. Bundan tashqari, mustamlakachilar o'lkaga tayyor sanoat mollarini keltirib sotish orqali ham boylik orttirgan [7, – 157 b.]. Bu keyinchalik imperiya ma'murlarining yozgan ko'pgina hisobotlar va maktublarida o'z aksini topdi. Jumladan, o'lkada taftish o'tkazgan senat

a'zosi graf K.K. Palen shunday yozgan: “Agar Turkistonni bosib olishda ahamiyatli bo'lgan siyosiy tUSDagi sabablarni hisobga olmasak, o'lka Rossiyaga qo'shib olingan ilk kunlardan boshlaboq rus hukumatida ikki yoqlama – moliyaviy siyosat nuqtai nazaridan davlat daromadlari manbai sifatida hamda yangi bozor sifatida va mustamlakachilik siyosati nuqtai nazaridan guberniyalardagi ortiqcha aholini ko'chirish uchun yangi hudud sifatida qiziqish uyg'otdi” [10, – C. 96].

Shunnigdek, Rossiya imperiyasining Turkistondagi agrar siyosatidan ko'zlangan bosh maqsadi va asosiy yo'nalishlarini Davlat mulklari va ziroatchilik vaziri A.V. Kirivoshein shunday ifodalagan: “Bu markaziy masalada uch ko'rinish mavjud. Agar birinchisida yarqirab turgan yozuv “Paxta” bo'lsa, ikkinchisida “Sug'orish” va nihoyat, uchinchisida uncha ko'zga tashlanib turmagan bo'lsa ham, aslida hammasidan muhimi – “ruslarni ko'chirib keltirib o'rnatish” yozuvi turibdi” [9, – C. 111.; 13, – 215 b.] Podshohning vazifasi markazning Turkistondagi mustamlaka siyosatining asosiy yo'nalishlarini juda lo'nda, muxtasar tarzda, ya'ni “paxta”, “sug'orish”, “ruslarni ko'chirib keltirish” kabi uch so'zda ifodaladi [13, – 215 b.]. Shu bilan birga o'lkadagi yer-suv munosabatlarida Rossiya imperiyasi hukumati ikki maqsadni ko'zlab ish tutgan bo'lib, birinchidan, O'rta Osiyoda o'z hukmronligini mustahkamlash bo'lsa, ikkinchidan esa o'lka iqtisodiy imkoniyatlaridan mustamlakachi imperiyaning hukmron tabaqalari manfaatlari yo'lida foydalanishga intilganligidadir [5, – 292 b.].

Rossiya imperiyasi ma'murlarining turli izlanishlari, o'lkaga uyushtirilgan ekspeditsiyalar va boshqa harakatlardan so'ng bosib olingan O'rta Osiyo xonliklari yerlarida imperiya hukumati politsiya-ma'muriy boshqaruv apparatini o'rnatib, o'lka xalqlarini kapitalistik munosabatlar doirasiga tortdi. O'lkada yaxlit ma'muriy boshqaruv tizimining o'rnatilishi yagona milliy bozorning vujudga kelishiga shart-sharoit yaratdi. Bu o'z navbatida o'lkada qishloq xo'jaligida ixtisoslashtirish jarayonini tezlashtirdi. Jumladan, o'lkaning Farg'ona vodiysi paxta yetishtiruvchi hududga, Samarqand viloyati g'allachilik va bog'dorchilikka, Sirdaryo va Yettisuv viloyatlari g'allachilik va chorvachilikka ixtisoslashib bordi, viloyatlar o'rtasida tovar almashinuvi tezlashdi [1, – C. 66-67; 2, – 15 6.; 15, – 9-10 b.].

O'lka bosib olingandan keyin ham metropoliyada kapitalistik sanoat ishlab chiqarishining o'sib borishi natijasida Rossiya imperiyasi – Turkiston savdo aylanmasi ham rivojlandi. XIX asrning 80–yillariga kelib, Rossiya mahsulotlari Sirdaryo viloyatida, shu jumladan, Toshkentda mustahkam o'rin egallaydi [6, – 288 b.]. Agarda ikki tomonlama savdo aylanmasi viloyatlar bo'yicha ko'rib chiqiladigan bo'lsa, birgina Sirdaryo viloyati bilan Rossiya o'rtasidagi savdo aylanmasi 1901-yilda 45 300 000 so'mga (rubl – U.U.) yetgan. Buning 30 900 000 so'mi (rubl – U.U.) viloyatga keltirilgan mollarga tegishli bo'lib, ular orasida Rossiya gazlamalari eng ko'p, ya'ni 20 000 000 so'mni (rubl – U.U.) tashkil etdi [6, – 290 b.].

XULOSA VA TAKLIFLAR

XIX asr o'rtalarda sanoati rivojlangan Yevropa davlatlari oldida Rossiya imperiyasi ichki sanoati mahsulotlari raqobatlasha olmay qoldi. Imperiya hukumati xalqaro maydonda o'zining siyosiy va iqtisodiy nufuzini saqlab qolish va imperiyaning ichki iqtisodiy holatini rivojlantirish uchun bir qator islohotlar o'tkazib, yangi rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishga majbur bo'ldi. Bu yo'lda birinchi navbatda, imperiya hududida kapitalistik ishlab chiqarishning nisbatan tez rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatuvchi, dehqonlar qaramligini bekor qiluvchi islohot, ya'ni “krepostnoylik huquqi” bekor qilingan bo'lsa, ikkinchi navbatda, iqtisodiyotining katta qismini tashkil etgan sifatsiz sanoat mahsulotlari uchun yangi bozor topishga harakat qilindi.

Yuqoridagi sabablar imperiya hukumatining hali bozori egallanmagan O'rta Osiyo xonliklari hududiga bo'lgan qiziqishlarni yanada kuchaytirishga hamda bu yerga nisbatan bo'lgan harbiy harakatlarini tezlashtirishga turtki bo'ldi. Natijada, Rossiya imperiyasi tomonidan O'rta Osiyo xonliklarinnig ayrim hududlari bosib olingach, bu hududda o'z mustamlaka tizimini o'rnatdi. Bu davrda O'rta Osiyo xonliklari imperiyaning markaziy hududlaridagi sanoat korxonalarida ishlab chiqargan mahsulotlari uchun tayyor bozor bo'lib, hech qanday raqobat talab qilmas, shuningdek, imperiya sanoat korxonalari uchun juda ko'p miqdordagi arzon xomashyo yetkazib beradigan bazaga aylantirildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Алимджанов Б.А. Экономическая политика Российской империи в Туркестанском генерал-губернаторстве (вторая половина XIX-начало XX вв.): Дисс. ... канд. ист. наук. – СПб. 2016. – С. 66-67;
2. Мусаев Н. XIX асрнинг II ярми – XX аср бошларида Туркистонда саноат ишлаб чиқаришининг шаклланиши. – Тошкент: IQTISOD-MOLIYA, 2008. – 15 б.
3. Балакин Ю.В., Петров А.И., Сорокин Ю.А. Очерки по отечественной истории. – Омск: ОГУ, 1999. – С. 176.
4. Деревянко А.П., Шабельникова Н.А. История России древнейших времен до конца XX века. – М., 2001. – С. 300.
5. Jo'rayev N., Sodiqov N. O'zbekiston tarixi: (Turkiston Chorizm mustamlakachiligi davrida). Birinchi kitob. – Toshkent: Sharq, 2011. – 292 b.
6. Зиёев Ҳ. Ўзбекистон мустамлака ва зулм исканжасида. – Тошкент: Шарқ, 2006. – 290 б.
7. Зиёев Ҳ. Ўзбекистон мустақиллиги учун курашларнинг тарихи: (Милоддан олдинги асрлардан то 1991 йил 31 августгача). – Тошкент: Шарқ, 2001. – 157 б.
8. История России с древнейших времен до наших дней. – М.: Проспект, 2015. – С. 412.
9. Кривошен А.В. Записка главноуправляющего земледелием и землеустройством о поездки в Туркестанский край в 1912 г.. – СПб, 1912. – С. 111.
10. Пален К.К. Приложение к отчету о ревизии Туркестанского края. Материалы к характеристике народного хозяйства Туркестана. Ч. 1. – СПб., 1911. – С. 96.
11. Терентьев М.А. Россия и Англия в борьбе за рынки. – СПб.: Типография П.П. Меркульева, Графский пер. Д. № 5. 1876. – С. 32-36.
12. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. <https://izoh.uz/uz/word/krepostnoy>
13. Ўзбекистоннинг энг янги тарихи. Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даври. Биринчи китоб. – Тошкент: Шарқ, 2000. – 215 б.
14. Усаров У.А. Россия империясининг Туркистон ўлкасидаги ер-сув муносабатларига оид сиёсати: Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Тошкент, ЎЗМУ. 2021. – 11 б.
15. Усаров У.А. Россия империясининг Туркистон ўлкасидаги ер-сув муносабатларига оид сиёсати: Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, ЎЗМУ. 2021. – 9-10 б.
16. Хальфин Н.А. Политика России в Средней Азии 1857–1858 гг. – М.: Изд. Вост. лит., 1960. – С. 60-61.
17. Ҳамидова М.С. Бухоро амирлиги савдо-маданий алоқалари тарихидан (XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошлари) // ЎЗМУ хабарлари. – Тошкент, 2013, Махсус сон. – 179 б.
18. Шипов А.П. Хлопчатобумажная промышленность и возможность его значение для России. Сборник статей. – М., 1958. – С. 49-50.